

**INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDA NOFILOLOGIK
TALABALARDA KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
TAMOYILLARI HAQIDA**

Seilxanova Rita Nurniyazovna

Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

rita.8211@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida nofilologik talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish modelini ishlab chiqish masalalari muhokama qilingan. Ushbu model orqali ta’lim jarayonida ingliz tilini o‘qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning natijalari, bosqichlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tilini o‘qitish, kreativ kompetensiya, model, metodika, bosqichlar, tayyorgarlik, universallik.

Аннотация. В данной статье обсуждаются вопросы разработки модели развития креативной компетенции у студентов-нефилологов в процессе обучения английскому языку. С помощью данной модели обсуждаются результаты и этапы развития креативной компетенции в преподавании английского языка в образовательном процессе.

Ключевые слова: обучение английскому языку, креативная компетенция, модель, методика, этапы, подготовка, универсальность.

Abstract. This article discusses the development of a model for developing creative competence in non-philology students in the process of teaching English. Using this model, the results and stages of developing creative competence in teaching English in the educational process are discussed.

Keywords: English language learning, creative competence, model, methodology, stages, preparation, versatility.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida nofilologik talabalarda kreativlik


Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda A.M.Novikov va D.A.Novikovlar tomonidan taklif etilgan modellarni yaratishga oid umumiyl talablarga amal qildik: modelning ingerentligi, soddaligi va yetarliligi [1]. Bizning holatimizda amalga oshirilayotgan modelning o‘zi faoliyat olib borishi kerak bo‘lgan ta’lim muhit bilan yetarli darajada mosligini, ya’ni ingliz tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni ta’minlaydi. Modelning soddaligiga modellashtiriladigan obyektning eng muhim xossalari tanlash orqali erishiladi, bu model bilan ishslash qulayligini va uni boshqa tadqiqotchilar tushunishini ta’minlaydi. Modelning muvofiqligi uning yordamida belgilangan maqsadlarga erishish imkonini berdi, modelda uni qurish maqsadiga muvofiqligini nazarda tutadi.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida nofilologik talabalarda kreativ kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish haqida yaxlit tasavvur hosil qilish uchun modellashtirish metodidan (ta’lim modelini tavsiflab beramiz), ya’ni obyekt va hodisalarini ularning shartli obrazlari, analoglari yordamida tadqiq etishdan foydalanamiz [2]. Bunda ta’lim modeli "ta’lim maqsadlari, ta’lim mazmuni, pedagogik texnologiya va ta’lim jarayonini boshqarish texnologiyasini loyihalash, o‘quv rejalarini va dasturlarini o‘z ichiga oluvchi tegishli elementlarning mantiqiy izchil tizimi" tushuniladi [3].

Nofilologik talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish modeli haqida so‘z yuritish uchun ushbu modelning O‘zbekiston Respublikasining me’oriy hujjatlariga, ta’lim hujjatlarida ko‘rsatilgan ijtimoiy buyurtmaga muvofiqligini asoslash, kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlarining o‘ziga xosligini, shuningdek, ushbu modelni tayyorgarlikning turli sohalarida amalga oshirish imkoniyatini ochib beramiz. Buning uchun modelni qurishning bir qator tamoyillari: me’oriylik, izchillik va universallik talablari ro‘yxatini to‘ldiramiz. Biz dissertatsiyamizda ingliz tilini o‘qitish jarayonida nofilologik talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga asoslanganmiz (1-rasm).

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi



1-rasm. Nofilologik talabalarlarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish modeli tamoyillari

Normativlik prinsipi o‘rganilayotgan jarayonni quyidagi normativ hujjatlar asosida modellashtirishni nazarda tutadi: O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni, "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Davlat ta’lim standarti va h.k. Ushbu hujjatlarni tahlil qilish davomida, bo‘lajak o‘qituvchining bir qator kasbiy kompetensiyalari unda kreativ kompetensiyani rivojlantirishni nazarda tutishi aniqlandi.

Izchillik tamoyilinofilologik talabalarlarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish modelining bosqichma-bosqichligidan iborat bo‘lib, uning keyingi bosqichi avvalgisining mantiqiy davomi hisoblanadi. Nofilologik talabalarlarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning turli bosqichlari va oliv o‘quv yurtlarida o‘qitish bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi.

Nofilologik talabalarlarning kreativlik kompetensiyasi komponentlarining o‘zaro aloqadorligi tamoyili kreativlik kompetensiyasining barcha komponentlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv) o‘zaro aloqadorlikda shakllanish darajasining dinamikasini rivojlantirish va kuzatishni taqozo etadi.

Universallik prinsipi. Bugungi kunda ko‘pchilik tadqiqotchilar bo‘lajak mutaxassislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni, odatda, ma’lum bir fan sohasiga xos bo‘lgan maxsus fanlar (masalan, I.E.Bryakova - adabiyotshunoslik va lingvistik fanlar) yoki psixologik-pedagogik fanlarni (E.E.Shcherbakova), ko‘pchilik talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi deb hisoblaymiz: ingliz tili va adabiyoti va boshqalar.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida (ya’ni, oliv o‘quv yurtlarida o‘qishning birinchi yillaridan) turli fanlar bo‘yichanofilologik talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish modelining universal tamoyilini yanada to‘liq aniqlash uchun ta’lim www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yo‘nalishi tayyorgarligining turli profillari uchun lingvistik kompetensiyaning (LK) mazmunini tahlil qilamiz.

Nofilologik talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni modellashtirishning yuqorida ko‘rsatilgan barcha bosqichlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Maqsadga muvofiqlik tamoyili nofilologik talabalarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining maqsadli komponentining yuqorida ta’riflangan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan ta’lim tizimida jamiyatning ijtimoiy buyurtmalariga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi.

Kreativ kompetensiyani rivojlantirish maqsadlari o‘qishning u yoki bu bosqichida talabalar amalga oshirishi mumkin bo‘lgan kreativ faoliyatning xarakteriga qarab belgilanadi. Masalan, birinchi kursda asosiy maqsad nofilolog talabalarda kreativ faoliyat haqida tushunchalarni rivojlantirish va OTM (ingliz tili) o‘quv rejalarida ko‘zda tutilgan fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quv jarayoniga kiritishga motivatsiyani rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish ikkinchi va uchinchi kurslarda nofilolog talabalarni o‘zlarida mavjud bilimlarni nostandard holatga (masalan, kasbga yo‘naltirilgan masalalarini yechishda) o‘tkazish orqali kreativ faoliyat tajribasini egallashga yo‘naltirish imkonini beradi. 1-2-kurslarda olingan natijalar yuqori kurs talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish maqsadini (3-4) ilmiy-tadqiqot loyihalarini bajarishda metodik apparatni qo‘llash va ularning natijalarini qayta ishlash jarayonida ta’lim oluvchilarining kreativ kompetensiyasini o‘rta yoki yuqori darajagacha rivojlantirishni belgilaydi. Shunday qilib, o‘qitishning har bir bosqichining maqsadlari avval amalga oshirilgan ishlarning mantiqiy davomidir.

Talabalarning onglik va faollik tamoyilini ajratish ta’lim natijasining o‘ziga xosligi (talabalar kompetensiyasini rivojlantirish) bilan bog‘liq bo‘lib, bu faqat talabalarning faol faoliyati, refleksiya va uning natijasini baholash sharoitida mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Новиков А.М. Методология / А.М.Новиков, Д.А.Новиков. – М.: СИНТЕГ,2007. – 668 с.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. Кузьминов В.И. О методологии педагогического моделирования развития информационно-компьютерной готовности иностранных студентов [Электронный ресурс] – Режим доступа: // http://www.ido.rudn.ru/vestnik/2010/2010_1/15.pdf
3. Дахин А.Н. Моделирование в педагогике: попытка осмысления [Электронный ресурс] // Режим доступа: <http://www.roman.by/r-78582.html>.